



## O'RGANISH JARAYONIDA INGLIZ TILIDA METAFORALARNING ROLI

**Norqulov Mirali**

Aniq va ijtimoy fanlar universiteti  
lingvistika yo'nalishi 1-kurs magistranti

**ANNOTATSIYA:** Ingliz tilini o'rganish jarayonida metaforalar tilning ma'nolarini kengroq tushunishga yordam beruvchi muhim vositalardan biridir. Metaforalar tilning nafaqat leksik, balki madaniy jihatlarini ham aks ettiradi. Ushbu maqolada ingliz tilidagi metaforalarning o'quvchilarning tilni o'zlashtirish jarayoniga qanday ta'sir qilishi, ularning samaradorligini oshirishda qanday ahamiyatga ega ekanligi ko'rib chiqiladi.

**KALIT SO'ZLAR:** metafora turlari, til o'rganishdagi ahamiyatlari, muammolar, madaniy tafovut, abstrakt tushuncha, ifoda ravonligi, tavsiyalar-

### Metaforalar va ularning lingvistik asoslari

Inson tafakkuri va tilining rivojlanishi jarayonida metaforalar alohida o'rin egallaydi. Ular nafaqat badiiy adabiyotda go'zallik yaratish vositasi sifatida, balki kundalik hayotda murakkab tushunchalarni sodda va anglash oson shaklda ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Kognitiv tilshunoslik nazariyasida metaforalar inson tafakkurining asosiy vositasi sifatida ko'rib chiqiladi, chunki ular orqali biz dunyoni idrok qilamiz, tasniflaymiz va tushunamiz. Masalan, kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan "vaqt oltin" yoki "bilim – kuch" kabi iboralar insonning vaqt va bilim haqidagi qarashlarini ochib beradi.



Biror predmet, belgi yoki harakatning boshqasiga qaysidir jihatdan o'xshashlik asosida ma'no ko'chish turiga metafora deyiladi. Metaforani hosil qilishda ikki tushuncha o'rtasida ma'lum o'xshashliklar asosidagi ma'no ko'chish jarayoni kuzatiladi. Bunday holatlarda predmetning rangi, shakli, xususiyati yoki harakat jihatdan o'xshashlik nazarda tutiladi. Narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashliklar quyidagi turlarga bo'linishi mumkin:

1. Shakliy (tashqi) o'xshashlik: arraning tishi, taroqning tishi, daraxtning ko'zi
2. Ma'noviy belgidagi o'xshashlik: issiq yuz, shirin hayol, tor ko'ngil
3. Harakatdagi o'xshashlik: rishtasi uzilmoq, ko'zlari chaqnab turmoq

Nutq jarayonida metaforadan foydalanishdan maqsad, tilni bezash uchun unga ko'proq jozibadorlik, dinamizm xususiyatlaridan qo'shishdir.

Metaforalar faqat adabiylik elementlari emas, ular insonning bilish jarayonlariga chuqur singib ketgan. Bu jarayon bizning til, madaniyat va dunyoqarashimizni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Metaforalar yuqorida ta'kidlanganidek, nafaqat badiiy adabiyotda keng tarqalgan, balki undan kundalik so'zlashuvlarda har kim har soatda foydalanib kelayotganini uchratishimiz mumkin. Bizning tilda va muloqotimizda foydalanadigan ko'plab iboralar aslida metaforalardir. Ular orqali biz o'z fikrlarimizni, his-tuyg'ularimizni, tushunchalarimizni aniq va ta'sirchan ifoda etamiz. Masalan, boshini qotirmoq, ko'nglini ko'tarish, yuragini to'kmoq, peshonasi sho'r, yuqoriga ko'tarilmoq kabi so'zlarni og'zaki muloqotlarda ko'p uchratamiz. Bu o'xshatishlarni biz muloqot jarayonida shakliga e'tibor bermasak ham nimani ifodalayotganini qiyinchiliksiz anglay olamiz. Lekin aslida bu so'zlarning shakliga e'tibor qaratsak boshini qotirmoq fe'li boshni qattiq holatga olib kelish emas, nimadir masala ustida jiddiy o'ylanish, yechimini topishga urinish ma'nosini bildirsa, ko'nglini ko'tarish so'zida aslida inson ko'ngli (yuragi)ni tepaga olib



ko'tarish, yuqoriga olib chiqish ma'nosi emas, balki xursand qilish, kayfiyatini yaxshilash ma'nolarini anglatadi. Yuragini to'kmoq iborasida ham yurakni to'kilish, quyilish holati emas, aynan dard va tashvishlarini kimdirga aytish, qiynalayotgan holatini bildirish ma'nolarini tushunamiz. Yuqoridagi izohlangan birliklarning barchasida harakat o'xshashligi orqali ma'no ko'chgan deb hisoblanadi. Qotirmoq fe'li orqali o'ylamoq, ko'tarmoq fe'li orqali xursand qilmoq, to'kmoq fe'li orqali esa muammolarini bildirish, gaplarini aytish ma'nosi ifodalanib, harakat o'xshashligini yuzaga keltirgan. Peshonasi sho'r iborasida esa peshonaning ta'mi sho'r (ya'ni tuzi me'yoridan ortiq) ekanlik ma'nosi umuman aloqador emasligi, bunda kishining qilayotgan ishi muvaffaqiyatli bo'lmayotgani, har urinishlari zarar yoki foydasiz bo'layotganini, qiyinchilik va azob ko'rilayotganini tushunish qiyin emas.

Xuddi shunga o'xshagan holda boshqa tillarda ham metafora hodisasini kuzatish mumkin. Ingliz tilida metafora o'xshatish asosida boshqa bir so'z yoki iboraga ko'chma ma'no beruvchi til birligi sifatida ta'riflanadi. Bu tilda metaforalar ko'pincha hayotning turli jabhalariga oid tasvirlarni ifodalaydi. Masalan, "Time is money" (vaqt bu pul) yoki "Learning is a journey" (o'rganish bu sayohat) kabi iboralar orqali murakkab tushunchalar oddiyroq shaklda izohlanadi. Har bir tilning o'ziga xos kognitiv lingvistikasida ma'no ko'chishlar, shaklan aytilayotgan ma'no emas, tag ma'nosida boshqa ifodani bildirayotgan ibora va so'zlarni uchratish tabiiydir. Masalan, aynan ingliz tilidagi metaforalarga nazar soladigan bo'lsak, Shekspirning "As You Like It" asaridagi "All the world's a stage" parchasini misol keltirishimiz mumkin. Bu yerdagi satrda dunyo bir sahnaga o'xshatilishi asosida ikkita farqli tushuncha – "dunyo" va "sahna"ni bir-biriga solishtirilayotganini tushunamiz. Yoki "Act like an angel" iborasini so'zma – so'z tarjima qilganda o'zini farishta kabi tutmoq degan ma'no kelib chiqsada, ammo, bu so'z o'zbek tilida "musichadek beozor" metaforasiga to'g'ri keladi.



## Til o'rganishda metaforalarning ahamiyati

Metaforalar tilning kognitiv jarayonlarida muhim o'rin egallaydi. Ular orqali insonlar abstrakt tushunchalarni tasvirlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan, metaforalar inson tafakkurining asosiy qismini tashkil etadi. Shu o'rinda til o'rganishda ham metaforalarning o'ziga xos o'rni mavjud. Ular ta'lim jarayonida quyidagi jihatlarda samarali hisoblanadi:

**1. Tushunishni osonlashtiradi.** Metaforalar yangi tushunchalarni o'rganishni qulaylashtiradi. Masalan, murakkab grammatik qoidalarni oddiy metaforalar orqali tushuntirish mumkin. Metaforalar yordamida murakkab grammatik strukturalar talabalarga yanada sodda va aniq ko'rinishda yetkaziladi. Masalan, "Grammar rules are traffic rules" metaforasiga e'tibor bersak, bunda grammatik qoidalar yo'l harakati qoidalariga o'xshatiladi: "Subject" haydovchi, "Verb" avtomobil, "Object" esa yo'l manzilidir. Haydovchi avtomobilni o'z ixtiyoricha boshqara olishi, ya'ni yetkazilayotgan informatsiya vaziyatiga qarab xohlagan zamonda, istalgan joy va istalgan shaxsda "ega" bo'lib kela oladi. Yo'l qoidalarga to'g'ri amal qilinsa, to'g'ri gaplar hosil bo'ladi. Shuningdek, grammatik qoidalar yo'l harakati qoidalariga o'xshatilgan bo'lsa, "Punctuation marks are road signs" ya'ni, tinish belgilarini yo'l belgilari sifatida tasvirlash mumkin: nuqta – to'xtash belgisi, vergul – sekinlashtirish, nuqta-vergul – yo'nalish o'zgarishi va h.k. Bu metaforalar nafaqat qoidalarni sodda qilib ko'rsatadi, balki o'quvchilarning tasavvur kuchini ishga solib, ularning qiziqishini ham oshiradi.

**2. Madaniyatni o'rganishga yordam beradi.** Ingliz tilida keng qo'llaniladigan metaforalar til o'rganuvchilarga ushbu tilga xos madaniyatni anglash imkonini beradi. Masalan, "break the ice" iborasi ijtimoiy munosabatlar haqida tushuncha beradi. Ingliz tilidan "muzni sindirish" tarjimasini beradigan bu ibora o'zaro to'siqlarni olib tashlash ma'nosini anglatadi. Bu ijtimoiy muloqotda noqulaylik, hijolatlik yoki munosabatlardagi



masofani yo‘qotishga qaratilgan madaniy qadriyatlarni aks ettiradi. Ushbu jarayon o‘quvchilarga til madaniyatining ko‘p qirrali jihatlarini o‘rganishga imkon beradi.

**3. Tilga ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.** Talabalar metaforalardan foydalanib bilim boyligini, so‘zamonlik qobiliyatini boyitadi va ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Tilni o‘rganish jarayonida metaforalarning qo‘llanilishi o‘quvchilarning o‘z fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, ifodani jozibali tasvirlashga ham yordam beradi.

**4. Eslab qolishni osonlashtiradi.** Metaforalardan foydalanish o‘rganilayotgan materialning tezroq yodda qolishiga yordam beradi. Masalan, yangi so‘zlarni kontekstual ravishda metaforalar bilan bog‘lash orqali o‘quvchilar ularni eslab qolishda samarali bo‘lishadi. Masalan, “The heart of the city” metaforasi orqali yangi so‘z downtown lug‘atini oson o‘rganish mumkin. Ya’ni, shahar markazini inson yuragiga qiyoslash orqali downtown so‘zini tushuntirish va eslab qolish mumkin. Shahar yuragi – bu eng gavjum va faol joy, xuddi inson yuragi kabi.

### Metaforalarni o‘rganishdagi muammolar

Metaforalarning til o‘rganish jarayonida qo‘llanilishi samarali bo‘lsa-da, ba’zi qiyinchiliklar ham mavjud:

- 1. Madaniy tafovutlar.** Ayrim metaforalar faqat ingliz tiliga xos bo‘lib, ularni boshqa madaniyat vakillari tushunishi qiyin bo‘lishi mumkin. Masalan, “to kick the bucket” iborasi ingliz tilida “vafot etish” ma’nosini anglatrsa, boshqa madaniyat vakillari uchun bu ibora mantiqsiz tuyulishi mumkin. Chunki bu ibora odatda rasmiy bo‘lmagan nutqda yoki hazilomuz suhbatlarda qo‘llanadi. Rasmiy yoki jiddiy vaziyatlarda undan foydalanish tavsiya etilmaydi.
- 2. Konseptual murakkablik:** Ba’zi metaforalar bir necha darajada abstrakt tushunchalarni o‘z ichiga oladi, bu esa talabalarning ularni anglashini qiyinlashtirishi mumkin. Masalan,



“Time is a thief” - vaqtni o‘g‘riga o‘xshatish talabalar uchun qiziq, ammo murakkab bo‘lishi mumkin. Bu metafora vaqtdan unumli foydalanmaslikning oqibatlarini ko‘rsatadi. Bunda talabalar vaqtning “o‘g‘rilik qilishi” bilan nimani aniq nazarda tutayotganini tushunmasligi yoki noto‘g‘ri talqin qilishi mumkin.

Abstrakt metaforalar nafaqat tasavvur kuchini, balki madaniy va kontekstual bilimlarni ham talab qilishi sababidan talabalarga qiyinchilik tug‘dirishi tabiiy. Bunday hollarda qo‘shimcha misollar, vizual materiallar yoki o‘xshashliklar orqali tushuntirish samarali bo‘ladi.

**3. O‘quv materiallarining yetarli emasligi:** Ingliz tilini o‘rganish uchun maxsus metaforalarga asoslangan o‘quv qo‘llanmalarining yetishmasligi talabalarning ushbu vositadan foydalana olish imkoniyatini cheklashi mumkin.

### **Til o‘rganishda metaforalarni qo‘llashdagi tadqiqot natijalari va muhokamalar**

Talabalar grammatikani va yangi so‘zlarni metaforalar yordamida tezroq o‘zlashtirishi tajribadan o‘tgan. Ayniqsa, murakkab mavzularni oddiy misollar orqali tushuntirish jarayonni sezilarli darajada yengillashtiradi. Ingliz tilidagi madaniy metaforalarni tushunish uchun qo‘shimcha ma’lumot va misollar berilganida, talabalar buni tezroq anglay boshlaydilar. Metaforalar yordamida ijodiy yozuv mashqlarini bajarish o‘quvchilarning ijodkorligini rivojlantiradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, metaforalar turli sohalarda, ayniqsa til va madaniyatni birgalikda o‘rganishda sezilarli ahamiyatga ega. Talabalar murakkab grammatik qoidalarni yoki lingvistik strukturalarni metaforalar yordamida tezroq tushunishadi. Lakoff va Jonsonning (1980) "Metaphors We Live By" kitobida metaforalar inson fikrlash jarayonining asosiy qismi ekanligi ta’kidlangan. Bu o‘quv jarayonida metaforalarning samarali vosita ekanligini isbotlaydi.



Cultural Linguistics (Sharifian, 2017) yondashuviga ko‘ra, metaforalar til o‘rganuvchilarga nafaqat tilni, balki unga xos madaniy qadriyatlarni o‘rganishga yordam beradi. Ingliz tilidagi “time is money” yoki “break the ice” kabi iboralar, vaqtning va ijtimoiy muomalalarning g‘arb madaniyatida qanchalik muhim ekanligini tushunishga yordam beradi.

Metaforalarni o‘zlashtirish talabalar ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ellis va Barkhuizen (2005) tadqiqoti tilni o‘rgatishda metaforalarning turli tillardan kelib chiqqan kontseptual qiyoslarni o‘rganishga yordam berishini ta’kidlagan.

Low (1988) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda ba’zi metaforalar o‘quvchilarga qiyin tuyulishi, chunki ular murakkab abstrakt tushunchalarni tushuntirishda haddan tashqari noaniq bo‘lishi mumkinligi aytilgan. Boers (2004) tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar uchun metaforalar madaniy kontekstdan kelib chiqsa, noto‘g‘ri talqin qilish xavfi mavjud.

Metaforalarning vizual va qiziqarli tabiati ular orqali o‘rganilgan ma’lumotlarning uzoq muddatli xotirada saqlanishiga yordam beradi. Paivio (1990) dual-coding nazariyasi bo‘yicha, metaforalar bir vaqtning o‘zida vizual va ma’no qatlamlarini uyg‘unlashtirgan holda bilimni mustahkamlaydi degan fikrni ilgari surgan.

### **Xulosa va tavsiyalar**

Xulosa qiladigan bo‘lsak, metafora – so‘zning ko‘chma ma’nosi bo‘lib, biror so‘z leksik ma’nosi referenti bilan obyektiv borliqdagi narsa, voqelik, harakat, holat, belgi yoki sezgi kabilardan biri aloqador yoki munosabatda bo‘lganligi uchun, uning nomida atalib ketishi orqali vujudga keladi. Ya’ni so‘zning muayyan leksik ma’nosi ikkinchi bir leksik ma’noni yaratadi. Shu tufayli ham, keyingi leksik ma’no metafora deb nomlanadi. Metaforalarning o‘rganilish tarixi qadimgi antik davralarga borib taqaladi va shu kunga qadar ko‘plab tilshunos olimlar, tadqiqotchilarning asosiy o‘rganish obyekti bo‘lib kelmoqda. Metaforaga doir juda ko‘plab izlanishlar olib borilgan bo‘lsa ham, kognitiv





tilshunoslikda metaforaning tahlil tortilishi kerak bo'lgan sohalari beqiyosdir. Bu esa o'z navbatida bu sohada qilinadigan ishlar hali ko'pligidan darak beradi.

Metaforalarning samaradorligi talabalar tajribasi, ularning madaniy konteksti va metaforalar qanchalik aniq tushuntirilishiga bog'liq. Shu sababli, o'qituvchilar ularni izohli, vizual ko'rinishda va talabalar darajasiga moslashtirib qo'llashlari muhimdir. O'qituvchilar grammatikani o'rgatishda texnik atamalar o'rniga metaforalardan foydalansalar, talabalar uchun qoidalarni o'zlashtirish osonroq bo'ladi. Masalan, "a sentence is a train" kabi metaforalar gap strukturasini tushuntirishda foydali bo'ladi. Metaforalarning qiziqarli va aniq bo'lishi talabalarni so'zlarning ma'nosini chuqurroq anglashga va muloqotda samaraliroq foydalanishga undaydi. Metaforalardan foydalangan holda madaniy izohlar berish talabalarni tilning ijtimoiy kontekstida to'g'ri foydalanishga o'rgatadi va ularni ko'p qirrali bo'lishga undaydi. O'qituvchilardan o'z metaforalarini yaratishni talab qilish ularda ijodiy yondashuvni rivojlantiradi va tilni kontekstual jihatdan boyroq o'zlashtirishga yordam beradi. O'qituvchilar metaforalarni tanlashda ularning talabalarning madaniy va til darajasiga mos bo'lishiga e'tibor qaratishlari kerak. Masalan, "a mind is a garden" kabi metaforalar tushuntirishsiz qabul qilish qiyin bo'lishi mumkin. Metaforalarni vizual materiallar bilan birga qo'llash talabalar uchun eslab qolishni yanada samaraliroq qiladi. Shunga qaramay, o'qituvchilar metaforalarning murakkabligini va madaniy mosligini hisobga olib, ularni o'rgatishda izohli va moslashuvchan yondashuvni qo'llashlari kerak. Ingliz tilini o'rganish jarayonida metaforalardan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, madaniy farqlarni hisobga olib, metaforalarni o'rgatishda qo'shimcha tushuntirish berish tavsiya etiladi:

- Metaforalarni o'rgatishda ingliz tilidagi iboralarning madaniy kontekstini tushuntirishga e'tibor qaratish;
- Talabalarga metaforalardan foydalanib matn yozishni o'rgatish;





- Til o'rgatishda metaforalarga asoslangan o'yinlardan foydalanish;
- Ingliz tilidagi madaniy metaforalarni o'zbek tilidagi ekvivalentlari bilan solishtirish orqali tushunishni osonlashtirish.

Ingliz tilini o'rganish jarayonida metaforalar muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ular til o'rganishni osonlashtirish, madaniy tushunchalarni anglash, yangi so'zlarni yodlash va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, metaforalar nafaqat tilni o'rganish jarayonini boyitadi, balki o'quvchilarning lingvistik va madaniy savodxonligini ham oshiradi. Metaforalarni to'g'ri va maqsadga muvofiq qo'llash o'quvchilarning o'quv tajribasini yanada samarali va qiziqarli qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Lakoff, G., & Johnson, M. *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press, 1980
2. Cameron, L., & Maslen, R. *Metaphor Analysis: Research Practice in Applied Linguistics, Social Sciences and the Humanities*. Equinox, 2010
3. Kovecses, Z. *Metaphor in Culture: Universality and Variation*. Cambridge University Press, 2005
4. Johnson, M., *The Body in the Mind: The Bodily Basis of Meaning, Imagination and Reason*, Chicago: Chicago University Press, 1987.
5. Mirtojiyev M. *O'zbek tili semasiologiyasi*, - Toshkent: Mumtoz so'z, 2010-94-b.
6. Mahmudov N. – *Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti*, - Toshkent, 2012. - №5, 3-16-b.
7. Coney J., & Lange A. Automatic and attentional processes in the comprehension of unfamiliar metaphors. *Current Psychology*, 2006 25, 93-119-b.